

ONA TILI DARSINI TALIMIY O'YINLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Mamatkarimov Nurjalol To'liqin o'g'li

*Samarqand davlat chet tillar institute Ingliz tili II fakulteti talabasi. Samarqand
davlat chet tillar instituti*

Nazarov Suxrobjon

Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili II fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ona tili darsini ta'limiy o'yinlar asosida tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari. O'quvchilarni ona tili darsiga qiziqtirish va ularning bilim salohiyatini oshirish .*

Kalit so'zlar: *Ta'limiy o'yinlarning ahamiyati, "Quvnoq ekspress", "Zakiylik va zehinlilik", "O'yla izla top", "Sirli mashq", "Test savollari".*

Hozirgi kunda o'quvchilarni ona tili darsiga qiziqtirish , darslarni samarali tashkil etish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi .Qachonki o'qituvchi dars mavzularni o'quvchilarga qiziqarli yo'llar bilan tushuntirsa , o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi ortadi va o'quvchilar fan ustida izlanadilar .Darsni qiziqarli tashkil etish avvalo o'qituvchining tashkilotchilik salohiyatiga ham bog'liq . O'qituvchi doimiy bir xil dars o'tish prinsipiga odatlarnib qolmasligi kerak, darslarni noan'anaviy usullar orqali o'tish lozim. Bunday usullardan biri ta'limiy o'yinlar hisoblanadi.Dars o'tish jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish , ta'lim - tarbiya samaradorligiga, eng muhumi, o'quvchilar mustaqil fikrining shakllanishiga xizmat qilishidadir.Ta'limiy o'yinlar darsda barcha o'quvchilarni faol bo'lishga undaydi.Shunday o'yinlardan biri —Quvnoq ekspressll o'yini bo'lib , bu o'yin o'quvchilarni erkin fikrlashga , puxta bilimga ega bo'lishga undaydigan o'yinlardan biridir. Ushbu o'yinni 8- sinfda yordamchi so'z turkumlari bo'yicha mustahkamlash darslari misolida ko'rib o'tamiz . Dars davomida o'qituvchi o'yinni o'tkazish tartibini o'quvchilarga tushuntirib o'tadi.O'qituvchi dars —Zakiylik va zehinlilikll , —O'yla izla topll , —Sirli mashqll , — Test savollarill bekatlaridan iborat ekanligini e'lon qiladi va sinf o'quvchilarini 3-guruhga ajratadi .Mashg'ulot o'yin musobaqa tarzida olib boriladi .O'quvchilar —Quvnoq ekspressll ga yetib borishlari uchun bir necha shartlardan iborat bekatlardagi topshiriqlarni bajarishi kerak bo'ladi. Guruhlar topshiriqlarni qanday bajarishiga qarab ball oladilar. 1. —Zakiylik va zehinlilikll bekatlari.Bu bekatda darslikdagi 13-mashq bajariladi . Har uch guruh uchun parta ustiga yordamchi so'z turkumlari aralash holatda berilgan bo'ladi .Bu so'zlar orasidan 1-guruh bog'lovchilarni , 2- guruh ko'makchilarni ,3-guruh yuklamalarni topib doskaga yozishi kerak bo'ladi. Topshiriq quydagicha bajariladi . 1-guruh 2-guruh 3-guruh Va uchun xuddi 57 Hamda orqali nahotki Na, na... haqida ... faqat... Topshiriq bajarib bo'lingach , doskadagi so'zlarni o'qituvchi tahlil qilib

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

ballarni e'lon qiladi. Shundan so'ng 2- bekatga o'tiladi . 2-bekat —O'yla izla topll. Bu bekatda darslikdagi 14-mashq shartiga asosan ,nuqtalar o'rniga yordamchi so'zlarni qo'yish kerak bo'ladi. Qaysi guruh mashq shartini to'g'ri va chaqqonlik bilan bajarsa o'sha guruh ball bilan taqdirlanadi va 3-bekat shartlari e'lon qilinadi . 3-bekat —Sirli mashqll .Bu bekatda o'quvchilar 13-mashqni yozma bajaradilar. Mashq shartini quydagicha bajarish kerak bo'ladi : 1-guruh bog'lovchilar ishtirok etgan gaplarni ,2- guruh ko'makchilar ishtirok etgan gaplarni , 3-guruh yuklamalar ishtirok etgan gaplarni ko'chirib daftarga yozadilar .O'quvchilarning yozma savodxonligi va guruhlar shartni qay darajada bajarganliklarini tekshirish uchun o'qituvchi har bir guruhdan bittadan o'quvchini doskaga taklif qiladi .Guruh vakillari ko'chirib yozgan gaplarni doskaga yozadilar. Mashqni to'g'ri va bexato bajargan guruh ball bilan mukofotlanadi va 4- bekat shartlari e'lon qilinadi . 4-bekat — Test savollarill .Bu bekatdan o'tish uchun har bir guruhga test topshiriqlari beriladi. O'qituvchi testlarni o'zi tushunarli qilib o'qib beradi . 1-guruhga: 1.Sof ko'machilar to'g'ri berilgan qatorni toping ? A)qarab , qaraganda , ko'ra C)sari , bilan , oldida B)ostida , yonida , qoshida D) qadar , haqida , uzra 2. Yoshlarimiz bilimdon negaki ,ularning bilim olishi uchun mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilgan . Ushbu gapda bog'lovchining qaysi turi ishtirok etgan ? A)teng bog'lovchi C)shart bog'lovchisi B)aniqlov bog'lovchisi D) sabab bog'lovchisi 2-guruhga: 1.Men-ku bu haqida o'ylab ko'rdim .Siz-chi?Ushbu gapda yuklamaning qaysi turi qatnashgan? A)kuchaytiruv – ta'kid,so'roq yuklamalari B)so'roq -taajub yuklamalari C)ayiruv-chegaralov yuklamalari D)so'roq yuklamalari 2.Teng bog'lovchilar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping ? A)ammo , bilan , yo, yo, C)agar , garchi , mabodo, B)ya'ni , goh, va D)biroq, chunki , negaki 3-guruhga : 1.Ot, olmosh , harakatnomi va sifatdoshlardan keyin kelib , ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi so'zlar hisoblanadi? A)bog'lovchi C)yuklama B)ko'makchi D)modal so'z 2. So'zga qo'shilib yoziluvchi qo'shimcha yuklamalar qatorini belgilang ? A)-mi, -chi, -a C)-da, -ku, -u B)-oq(-yoq),-gina (-kina, -qina) D)- chi, -yu , -a 58 Guruhlar bir –birining test topshiriqlariga berilgan javoblarni almashgan holda , tekshirib chiqadilar. Natija o'qituvchi tomonidan kuzatib borilganligi uchun o'qituvchi guruhlarini baholaydi.Dars so'ngida guruhlar to'plagan ballar hisoblab chiqiladi va g'olib guruh aniqlanadi . —Quvnoq ekspressll ga yuqori ball bilan yetib borgan o'quvchilar turli xil , daftar, ruchka, kitoblar bilan taqdirlanishlari mumkin . Xulosa qilib shuni aytish joizki , ona tili darsida bunday usullarni qo'llash , o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni mustaqil ravishda takomillashtirish , ularni ona tili darslariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish imkonini beradi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1 Muhammadjon Qodirov ,Hamid Ne‘matov ,Muhabbat Abdiraimova ,
Ra‘no
- 2 Sayfullayeva , Baxtiyor Mengliyev . Ona tili 8-sinf darslik . Toshkent -
2019.
- 3 I.P.Po‘latov,S.A.Odilov .Ona tili ta‘limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi
(o‘quv –uslubiy qo‘llanma) Qo‘qon -2014.
- 4 Isamitdinov S.Ta‘lim jarayonida innavatsion usullardan foydalanish
Toshkent-2005.

